



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## OSIYODA AHOLI QARISHI JARAYONLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MUAMMOLARI

**Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi**  
+998338440030;  
e-mail: [n.abdulazizova91@mail.ru](mailto:n.abdulazizova91@mail.ru)

***Annotatsiya.** Ushbu ilmiy ishda aholi qarish jarayonlari va uning mamlakat iqtisodiyotiga va ijtimoiy ta'minot sohasiga ta'siri yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu jarayon mamlakatlar oldida samarali va o'zgarishlarga egiluvchan pensiya siyosatini amalga oshirish, mehnat bozorida o'zgarishlarni boshqarish, risklarni to'g'ri baholash, pensiya yoshidagi aholi qatlamini ijtimoiy himoya qilish, ularga asosiy yashash ehtiyojlarini ta'minlash masalalari turganligi haqida bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:** aholi qarishi, pensiya tizimi islohotlari, pensiya yoshi, umr davomiyligi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya.*

Global miqyosda kuzatilayotgan aholi qarishi jarayonlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga turli ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Tibbiyot, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari natijasida butun dunyoda umr davomiyligining oshishi va tug'ilishning qisqarishi mamlakatlarda amal qilayotgan pensiya tizimlarini isloh qilish va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga moslashtirish ehtiyojini tug'dirmoqda.

Osiyo taraqqiyot bankining tadqiqotlariga ko'ra, Osiyo mintaqasi 2030 yilga borib, aholi qarishi bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich (4,9 milliarddan ziyod kishi) ga ega mintaqalar sifatida tavsiflanishi kutilmoqda. Qarish muammosi keyingi bir necha o'n yilliklar davomida Osiyo mintaqasi uchun asosiy muammolardan biriga aylandi. 2050 yilga kelib, Xitoy Xalq Respublikasida qariyb 432 million, Hindistonda 330 million va Indoneziyada 67 million keksa yoshdagilar yashashlari kutilmoqda. Uch Osiyo davlatining dunyo keksalaridagi ulushi 2006 yildagi 37 foizdan 2050 yilda 42 foizgacha oshishi mumkin[1]. Bu esa qariyalar uchun ko'proq iqtisodiy resurslarni ajratish zarurligini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, Osiyodagi ko'plab keksalar pensiya olish imkoniga ega emaslar va ularning aksariyati unchalik ishonchli bo'lmagan daromad manbalariga tayanadi. Ko'pgina rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida pensiya tizimlarining qamrovi 10% dan 35% gacha o'zgarib turadi[2].

Har qanday pensiya tizimining asosiy maqsadlari sifatida umr davomida iste'molni bir tekisda ta'minlash; inflyatsiya va boshqa xavflardan sug'urta qilishni ta'minlash; daromadlarni qayta taqsimlash; va qashshoqlikni yengillashtirish kabilar ko'rsatiladi[3]. Ammo, Osiyo pensiya tizimlari pensiya tizimining ideal xususiyatlarini bajarishda muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda. Masalan yetarli



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

qamrovning yo`qligi, moliyaviy barqaror emasligi, keksa kambag`allarning yetarlicha himoyalalmaganligi kabilar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari tashqi omillardan global pandemiya, yuqori inflyatsiya darajasi, Ukrainadagi urush natijasida jahon bozoridagi oziq-ovqat, yoqilg`i, ko`chmas mulk narxining keskin oshishi bevosita pensiya ta`minoti tizimiga salbiy ta`sir ko`rsatib, nafaqadagi insonlar uchun moliyaviy beqaror va xavfli holatni yuzaga keltirmoqda[4]. To`g`ri va samarali ishlaydigan pensiya tizimini ishlab chiqish esa risklarni to`g`ri baholashdan boshlanadi.

Shuningdek aholi qarish jarayonlari mamlakatning iqtisodiy o`shish sur`atlariga turli yo`nalishlar bo`yicha ta`sir ko`rsatadi. Jumladan:

- demografik tuzilmaning o`zgarishi hisobiga mehnat taklifining o`zgarishi;
- aholi tarkibida keksa odamlarning ulushi ortishi bilan jami jamg`armalar kamayishi mumkin, bu esa investitsiyalar uchun mavjud mablag'larni va iqtisodiy o'sish sur`atlarini kamaytiradi.

- Tovar va xizmatlar hamda inflyatsiya tempiga ta`sir qiluvchi iste`mol xarajatlarining qisqarishi, iste`mol modelining o`zgarishiga olib keladi. Xalqaro valyuta fondining hisob-kitoblariga ko'ra, aholining qarishi yalpi talabning pasayishi natijasida yuzaga keladigan deflyatsion bosim bilan birga keladi. Shu bilan birga, keksalar guruhi talabi foiz stavkasining o'zgarishiga kamroq ta`sirchan hisoblanib, pul-kredit siyosatining samarasiz bo`lishiga olib keladi.

- Pensiya tizimi, sog`liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlari ortadi. Bu esa sug`urta mukofotlarini hisoblash bazasining qisqarishi bilan birga mamlakat byudjetiga sezilarli yukni keltirib chiqaradi, shu jumladan davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbati oshishiga olib keladi. OECD hisob-kitoblariga ko'ra, siyosatda o`zgarishlar bo`lmasa, aholining qarishi davlat qarzini keyingi 30 yil ichida rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o`rtacha 180% ga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa YaIMning 130% ga oshirishi mumkin[5].

Xulosa qilib aytganda, aholi qarishi jarayonlari mamlakat iqtisodiyotiga keng qamrovli ta`sir ko`rsatadi. Pensiya tizimini optimallashtirish va isloh qilish mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta`sirlarni kamaytirish imkonini beradi. Bunda mamlakatning iqtisodiy yetuklik darajasi va demografik tuzilma xususiyatlarini hisobga olish lozim.

## Foydalangan adabiyotlar

1. Asher, Mukul G. Social Security Reform Imperatives in Developing Asia. Indian Economic Journal. [www.appam.org/conferences/international/singapore2009/sessions/downloads/2711.pdf](http://www.appam.org/conferences/international/singapore2009/sessions/downloads/2711.pdf)



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

2. Asher, Mukul G. 2010a. Social Security Reform in Southeast Asia. Paper presented at the Asian Development Bank Regional Conference on Enhancing Social Protection in Asia and the Pacific. Manila. 21–22 April.
3. Reforming Asia’s Pension Systems. Asian Development Bank. Philippines. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/28554/reg-reforming-pension-systems.pdf>
4. NATIXIS Global retirement index 2022. <https://www.im.natixis.com/intl/research/2022-global-retirement-index>
5. Dorothée Rouzet, Aida Caldera Sánchez, Theodore Renault and Oliver Roehn. Fiscal challenges and inclusive growth in ageing societies. [https://www.oecd-ilibrary.org/economics/fiscal-challenges-and-inclusive-growth-in-ageing-societies\\_c553d8d2-en](https://www.oecd-ilibrary.org/economics/fiscal-challenges-and-inclusive-growth-in-ageing-societies_c553d8d2-en)

